



Education and development of gifted students with modern teaching methods

Zoirjon ARIPOV¹, Markhabo SAIDUMAROVA²

Fergana state university

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2021

Received in revised form

15 November 2021

Accepted 20 December 2021

Available online

15 January 2022

Keywords:

teaching methods,

techniques,

didactic game technologies.

ABSTRACT

This article describes modern methods of teaching, education and development of gifted students. Interactive teaching methods, didactic and methodological requirements are considered. Functional requirements, interesting teaching methods, didactic game technologies have been studied.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss11/S-pp86-92>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'qitish metodlari,

usullari,

didaktik o'yinli

texnologiyalar.

Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish metodlari, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish, interfaol o'qitish usullari, didaktik va uslubiy talablar, funksional talablar, o'qitishning qiziqtiruvchi metodlari, didaktik o'yinli texnologiyalar bayon etilgan.

Воспитание и развитие одаренных учащихся современными методами обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

методика обучения,

методики,

дидактические игровые

технологии.

В данной статье, описаны современные методы обучения, воспитание и развитие одаренных учеников. Рассмотрены интерактивные методы обучения, дидактические и методические требования. Изучены функциональные требования, интересные методы обучения, дидактические игровые технологии.

¹ Lecturer, Fergana state university. Fergana, Uzbekistan.

² Master level II, Fergana state university. Fergana, Uzbekistan.

Hozirgi kunda zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni tashkil etish, ta'lim berishning yangi uslublariidan foydalanish nihoyatda dolzarb masalaga aylandi. Ma'lumki, interfaol (interaktiv) tushunchasi inglizcha "interact" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "inter" – o'zaro, "act" – ish ko'rmoq, ishlamoq ma'nolarini anglatadi. Interfaol o'qitish, avvalo, muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin va hamkorlikda fikrlash, tahlil qilish va birgalikda natijaviy fikrni hosil qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishni, hamkorlikda faoliyat yuritishni, mustaqil fikr yuritishni, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, interfaol usullar bo'yicha o'qitish tashkil etilganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir jihat darsga qo'yilgan maqsad va vazifaning mazmuni masalasidir [1]. Maqsad va vazifalarning mazmuni o'qitishning an'anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq xarakterga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi dars jaryonida interfaol usullardan foydalanishdan oldin mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar haqida ma'lumot berib o'tadi. Shundan so'ng bu tushunchalar o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, takrorlashlari, kengaytirishlari va mantiqiy fikr yuritishlariga imkoniyat beradi. Bunda interfaol usullarning ahamiyati oshadi. Quyida bunday usullardan uchtasining dars jarayoniga tatbiqini ko'rib chiqamiz.

I. Interfaol usullardan biri – "BT" (Biz tayyor) usulidir. Bu usul yordamida o'quvchilar o'qituvchining passiv boshqaruvi ostida kerakli bilimlar haqida tushuncha hosil qiladilar, o'zlashtiradilar va takrorlaydilar. O'quvchilarga savollar beriladi va mavzuni o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilarni bir nechta guruhlariga ajratadi va ularni doira shaklida joylashtiradi. Har bir guruhga savollar beriladi va savollar muhokamasi boshlanadi. Qaysi guruh tayyor bo'lsa, BT deb aytishadi. Shu zahoti hamma guruhlarda muhokama to'xtatiladi. Guruhning bir a'zosi tomonidan javob eshutiladi. Agar javob to'la bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa, muhokama yana tiklanadi. Shu tarzda har bir savol guruhlar tomonidan muhokama qilinib, to'g'ri javob aniqlanadi. Qaysi guruh a'zolari ko'p to'g'ri javob berishiga qarab, ular baholanadilar.

II. "Zanjirli kalit" usuli yordamida takrorlagan va o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydilar. O'qituvchi yuqoridagi guruhlarini tarqatib yuboradi va ularni partalar qatorlari bo'yicha joylashtiradi (masalan, 3 qator). Yozuv taxtasi o'zaro teng qator soni (masalan, 3) ga bo'linadi. Har bir qatorning birinchi partasidan bir o'quvchi (ya'ni guruh sardori)ga kalit uchun oq qog'oz va maxsus ruchka (flomaster) tarqatiladi va guruh sardorlariga yozuv taxtasida o'zining guruhi ishlab chiqargan misol javobini ketma-ket ravishda yozib borishi tushuntiriladi. O'quvchi yozuv taxtasini teng 3ga bo'ladi (ya'ni guruhlar soniga) va har bir guruhga bittadan zanjirli jadval – kalit ko'rinishidagi sxema beriladi (bu sxema o'quvchilar soniga qarab tayyorlanishi mumkin).

Qaysi guruh tez va to'g'ri kalitga ega bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi, buning uchun guruh sardoridan kalit ro'yxati olinadi va o'qituvchi tomonidan tekshiriladi. Natijada, hay'at a'zolari ballarni hisoblaydi, baholaydi. Ko'p ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi. G'olib guruh a'zolari 5 baho oladilar, har ikkala guruh a'zolari rag'batlantiriladilar. Bunday sinfdan tashqari tadbirlar o'tkazilganda, o'quvchilarning bilim salohiyati, fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Bilim, malaka, ko'nikmalari shakllanadi va fanning asosiy tushunchalarini farqlay oladilar [2].

Zamonaviy o'qitish metodlari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

1. Pedagogik talablar, o'z navbatida, didaktik va uslubiy talablarga bo'linadi.

2. Didaktik talablar:

- amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi zarur;
- ta'lim oluvchiga qiziqarli va ilmning jamiyatdagi rivojlanish darajasiga mos ilmiylikka ega bo'lishi;
- ta'lim berish jarayonida bilimni o'zlashtirish darajasini oshirish uchun fan – texnika va texnologiyalar erishgan yutuqlardan maksimal foydalanilishi;
- berilishi zarur bo'lgan o'quv materialining hajmi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasida bo'lishi;
- tavsiya etiladigan sinfdagi o'quvchilar uchun taqdim etiladigan o'quv materialini berish intensivligini o'zgartirish imkoniyatini ta'minlash;
- iqtidorli ta'lim oluvchilar uchun fanlar doirasida maxsus qo'shimcha bloklar taqdim etish (olimpiada masalalari, nobel mukofotlariga taqdim etilgan tematikalar va h.k.);
- foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lishi;
- o'rganiladigan o'quv materialini ta'lim oluvchi (o'quvchi) osonroq o'zlashtirilishi uchun imkoniyat doirasida ovoz, animatsiya, rasm va shu kabi media fayllar bilan boyitilgan bo'lishi;
- ta'lim oluvchining bilim darajasiga moslashuvchan, uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda ishlaydigan, uning hissiy va jismoniy imkoniyatlarini ham hisobga olishi;
- murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish, olinadigan natijalarni tahlil qilish, natijalarni grafik interpretatsiya orqali namoyish etish, o'rganiladigan fan mazmuniga ko'proq e'tibor berish, masala va misollar yechish uchun sharoit yaratilishi;
- o'rganuvchining e'tiborini chalg'ituvchi ortiqcha elementlar bo'lmasligi;
- o'rganuvchining bilim, qobiliyat va psixologik xususiyatlari darajasining o'quv jarayoniga muvofiqligini ta'minlash;
- o'rganiladigan fan bo'yicha istalgan bosqichda o'z-o'zini nazorat qilishga imkoniyat yaratish;
- o'rganiladigan fan bo'yicha tayyorlanadigan materiallarni istalgan tashuvchiga o'tkazish imkoniyatining mavjudligi;
- fanni o'rganishda imkoniyat doirasida kalit so'zlar, qo'shimcha adabiyotlar, giperko'rsatmalar va yordamchi funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining bo'lishi;
- tavsiya etiladigan sinfdagi o'quvchilarning barcha psixofiziologik va etnogenetik xususiyatlarini hisobga olinishi shart.

3. Uslubiy talablar:

- katta hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish va qayta ishlash imkoniyatini berish, olingan natijalarni tahlil qilish uchun grafik interpretatsiyalardan foydalanish;
- ta'lim beruvchiga darsni mustaqil dars ko'rinishda o'tkazishga sharoit yaratish, bu holatda ta'lim beruvchi maslahatchi ro'lida ishtirok etishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchiga mustaqil o'rganish, zarur holatlarda misol, masala, laboratoriya ishlari va topshiriqlarni mustaqil bajarishga sharoit yaratish;
- darslarga tayyorgarlikni o'qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratishi (slyayd, matn, videomaterial va h.k. tayyorlash imkoniyatini berish);
- o'rganiladigan o'quv materialining sistemali, mantiqiy ketma-ketligini, modul-liligini va ular orasidagi uzviylikni ta'minlash;

• o'qituvchiga ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat qilish imkoniyatini berish zarur.

4. Funksional talablar:

• mazmun qog'oz variantdagi kitobga o'xshash tarzda kalit so'zlarni qidirish imkoniyati mavjud, fanni to'ldiradigan qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan;

• moslashuvchanlik – ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasiga bog'liq ravishda, o'tilgan mavzuni qaytarish, ustida ishlashni individual tempda amalga oshirish;

• ko'pterminalli – statik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati mavjud, sinfdagi o'quvchilarning darslikdan foydalanish chastotasi, test natijalari, to'g'ri-noto'g'ri javoblar, o'quvchilarning qaysi mavzuni yomon o'zlashtirayotganligini tahlil qilish imkoniyatlari;

• interaktivlik – tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya'ni EATR bilan o'quvchi o'rtasida muloqot o'rnatib, o'qituvchi yoki o'rgatuvchi mavjudligi hissini tashkil etish;

• interaktivlik ta'minlash va individual ta'lim olishga sharoit yaratish imkoniyatining mavjudligi;

• elektron axborot texnologiyalarida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalangan holda yuqori sifatli ko'rgazmalilikka ega bo'lishi shart [3].

O'qitishning qiziqtiruvchi metodlari. Ma'lumki, fanlarning o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy ta'limning umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, ta'limning amaliyotdagi tatbig'ini va zamonaviy hayotdagi rolini ochib berishdan iborat. Lekin didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim. Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabop bo'lgan krossvord o'yini bolalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli o'quvchilar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir. Ushbu o'yinga o'quvchilar shu darajada kirishib ketadilarki, hatto, o'zlari ham fanlarning turli mavzulari bo'yicha krossvordlar tuzishlari mumkin. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shakli foydali bo'lishi bilan birga, faqatgina kuchli o'quvchilarnigina emas, balki kuchsizlarni ham qamrab oladi. Boshqa o'quv predmetlaridan kuchsiz o'zlashtiruvchi o'quvchilar, ko'pincha, fanlardan yaxshi va tirishqoq o'quvchilarga aylanadilar. Krossvordlar, rebuslar va boshqotirmalar sodda bo'lishi bilan birga, mashhur olimlar, allomalar ismlariga, maxsus atamalarga diqqatini jalb etishning samarali vositasi hamdir.

O'yinli vaziyat, krossvord va rebusni yechishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi elementlari iqtidorli o'quvchilarni shunday o'ziga tortadiki, beixtiyor ularni ta'lim sohasidagi bilimlarini to'ldirishga rag'batlantiradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Bola hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'yin orqali shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi.

2. Kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.

3. O'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishga imkon yaratadi.

4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini hosil qiladi.

5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.

6. Shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi.

8. O'yin ishtirokchilarida jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

O'yin bilan bog'liq faoliyat o'zining to'rtta xususiyati bilan ajralib turadi:

1. Erkin rivojlantiruvchi faoliyatning vujudga kelishi (bunda o'yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlash, o'z faoliyatidan ko'ngli to'lishi nazarda tutiladi).

2. Ijodiy muhitning tarkib topishi (o'yin ishtirokchilari tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo'ladilar).

3. His-hayajonli vaziyatning paydo bo'lishi (o'yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o'zaro yordam vujudga keladi).

4. O'yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishi (o'yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va h.k.).

O'yin tarkibiga quyidagi masalalar kiradi:

a) o'yinning syujeti;

b) muayyan rollar, vazifalar;

v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar);

g) aniq o'yinlar yoki shartli ravishdagi o'yin vositalaridan foydalanish;

d) o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat, muloqot.

O'yin faoliyatining tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. O'yindan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlash, loyihalash.

2. Ushbu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash.

3. Olingan natijalarni tahlil qilish.

4. O'yin strukturasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

Didaktik o'yinlarning turlari: syujetli-rolli o'yinlar; ijodiy o'yinlar; ishbilarmonlar o'yini; konferensiya, o'yin-mashqlar. Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning obyektlari o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga keltirilgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zaxiralariga tayangan holda hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o'yinlar syujetli-rolli o'yinlar deb ataladi. Bunda o'yin syujeti jamiyatdan yoki tabiatdan olinadi. Ba'zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashtiriladi.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash lozim.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettirishga, o'quvchilarning muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan hamda kasbiy sifatlarini tarkib toptirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga mo'ljallangan didaktik o'yinlar ishbilarmonlar o'yini deyiladi. Ishbilarmonlar o'yini ham boshqa o'yinlar kabi o'qituvchi va o'quvchilardan puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi.

O'qituvchi ishbilarmonlar o'yinini uyushtirishda quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi zarur:

- O'yin mavzusini oldindan belgilashi.
- Didaktik o'yinning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlarni aniqlash va rejalashtirish.
- Didaktik o'yin davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan o'quv-bilishga oid muammoli vaziyatlar tizimini vujuga keltirish yo'llarini aniqlash va loyihalash.
- O'quvchilarni didaktik o'yinning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, didaktik o'yin talab etadigan vazifalarni taqsimlash, har bir o'quvchiga aniq yo'llanma berish.

Mazkur o'quv-bilishga oid muammoli vaziyatlarni hal etishda o'quvchilarning avvalgi mavzulardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini tanish, odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash.

O'quvchilarning didaktik o'yinga tayyorgarlik faoliyatini kuzatish va nazorat qilish [4].

Yuqoridagilarni bajarish o'quvchilarda iqtidorlikni, intellektual qobiliyatni talab etadi. Iqtidorlik–faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi qobiliyatlarning o'ziga xos sifatli yig'indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt; bilish imkoniyatlari va o'rganishga bo'lgan qobiliyatlarning individual tavsifi. Iqtidorli o'quvchi o'zining intellekt darajasi, bilish imkoniyatlari, qobiliyati bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turuvchi individual salohiyat egasidir.

Intellektual qobiliyat – to'g'rilik nuqtayi nazaridan aniq vaziyatlarda intellektual faoliyatning muvaffaqiyatini tavsiflovchi intellekt xususiyati hamda vazifalarni hal etish jarayonida axborotlarni qayta ishlash tezligi, g'oyalarning originalligi va xilma-xilligi, ta'lim olganlikning yuqori sur'ati va chuqurligi, bilish usullarida individuallikning aks etishidir.

Iqtidorli o'quvchilar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

– qiziquvchanligi; doimo turli savollarga javob izlashlari; nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi; erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, matematikaga qiziqishi; yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati; masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik; tafakkurning unumdorligi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning quyidagi didaktik parametrlari aniqlashtirildi:

- o'quv jarayonini yuqori darajadagi murakkablik asosida tashkil etish, bunda o'quv materiallari murakkablik darajasining aniq ifodalanishiga amal qilish;
- o'quv materiallarini jadal tarzda o'zlashtirish imkonini beradigan usul va texnologiyalarni qo'llash;
- ta'limning dastlabki bosqichida nazariy bilimlarning yetakchi o'rin egallashiga e'tibor qaratish; o'quvchilarning o'quv jarayoni mohiyatini tushunishlariga erishish kabilar [5].

O'quvchining ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi kerak:

– intellektual salohiyatni rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo'lishi kerak. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish lozim; intellektual salohiyatni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko'zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim; intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatning dastlabki bosqichida ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak.

Iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror-bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

O'quvchilar iqtidorining rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega.

Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va uni faol o'zlashtirib hayotga tatbiq eta oladilar. Lekin barcha yoshlarimizga bu qobiliyat va iste'dod, tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib boorish, birinchi navbatda, pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga, ya'ni oila, mahalla, ta'lim muassasalari va korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi [6].

Darhaqiqat, iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonni tashkil etishda ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas'uliyatlarini oshirish imkoniyatlarini izlash o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar muayyan o'quv predmetlari yoki ularning qismlarini o'z xohishlariga ko'ra chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. Ular turli bilimlar va axborotlarni tez, chuqur o'rganishni xohlaydilar va o'zlarining o'quv harakatlarini rejalashtiradilar. Shularni hisobga olgan holda iqtidorli o'quvchilarga mustaqil izlanish, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание // Ж. Директор школы. – М., 2000. – №3. – С. 76–86.
2. Княгина Н., Янбарисова Д. Поддержка талантливой молодежи: опыт России и зарубежных государств. Образовательная политика. № 1(71), 2016.
3. Karimova M., Tuychieva R. The pedagogical basics of training students for professional, Moral and educational function // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – № 10. – PP. 311–317.
4. Karimova M.O., Saidullaeva A.R. Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – T. 17. – №. 7. – PP. 8547–8555.
5. Методические рекомендации по организации работы специалистов сферы общего образования по выявлению и сопровождению детей, проявивших выдающиеся способности. Авторы-составители: Яковлева Н.И., Иванова Т.С. и др. МОН РФ ГОУ ВПО Московский государственный областной университет. 2017 г.
6. Rahmatova F.G'. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning nazariy-texnologik jihatlari. Uslubiy qo'llanma. Samarqand-2019. – S. 46–48, 66–68.